

TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

YALPI HUDUDIY MAHSULOT


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020 – yilning yanvar – mart oylarida Toshkent shahri bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 19 745, 4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019 – yilning mos davriga nisbatan 6,2 % ga o'sdi.

2020 – yil yanvar – mart oylarida aholi jon boshiga YaHM 7 655,3 ming. so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 3,6 % ga oshdi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaIMni shakllantirishda Toshkent shahrining qo'shgan hissasi 17,9 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHMni ishlab chiqarish


	<i>Mrd. so'm</i>		<i>2019-yil yanvar- martga nisbatan % da</i>
	<i>2019-yil yanvar-mart</i>	<i>2020-yil yanvar-mart</i>	
I. Yalpi hududiy mahsulot, jami	15 950,5	19 745,4	106,2
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	13 990,4	17 598,5	106,1
Mahsulotlarga sof soliqlar	1 960,1	2 146,9	106,4
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	13 990,4	17 598,5	106,1
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	6 522,3	8 546,2	107,9
sanoat	5 255,7	7 109,3	108,9
qurilish	1 266,6	1 436,9	103,6
Xizmatlar	7 468,1	9 052,3	104,6
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 264,9	2 736,0	104,2
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 887,7	2 192,4	106,9
boshqa xizmat tarmoqlari	3 315,5	4 123,9	103,6



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, sanoat tarmog'ining o'sish sur'ati – 108,9 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 40,4 %), qurilish – 103,6 % (8,2 %), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 104,2 % (15,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 106,9 % (12,5 %) va boshqa xizmat tarmoqlari 103,6 % (23,4 %) ni tashkil etdi.

2020-yilning yanvar – mart oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 89,1 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 10,9 % ini tashkil etdi.


YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibida sanoat (qurilishni qo'shgan holda) tarmog'ining ulushi 48,6 % (2019 – yilning yanvar – mart oylarida – 46,7 %) ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,9 % punktga o'sish kuzatildi. Xizmatlar sohasining ulushi esa 51,4 % (53,3 %) ni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,9 % punktga kamaydi.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi
(jamiga nisbatan % da)

2019-yil yanvar-mart



2020-yil yanvar-mart




- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati
- Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)
- Xizmatlar


Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 15,5 % (2019 – yilning yanvar – mart oylarida – 16,2 %) ni, tashish va saqlash, axborot va aloqa 12,5 % (13,5 %) ni, boshqa xizmat tarmoqlari 23,4 % (23,6 %) ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan % da)

2019-yil yanvar-mart



2020-yil yanvar-mart



- Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Tashish va saqlash, axborot va aloqa
- Boshqa xizmat tarmoqlari

*Statistika faoliyatini tashkil etish
va yig'ma axborot-tahliliy ishlari bo'limi*
Nashr uchun mas'ul: A.Ibragimov
Tel.: (0371) 230-88-08